

# Prezident topshiriqlari ijrosi: Otalar yig'ilishi o'tkazildi



Prezident topshiriqlari ijrosi: Otalar yig'ilishi o'tkazildi

Davlatimiz rahbarining joriy yilning 13 mart kunida Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida viloyatning tajribasi sifatida "Otalar qabul kuni" bo'lishi taklifi berilgan edi. Ushbu munosabat bilan bugungi kungacha Termiz shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumta'lim maktablarida ham tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan bugun Termiz shahridagi 12-hamda 26-umumiy o'rta ta'lim maktablarida navbatdagi "Otalar yig'ilishi" tashkil etildi.

Unda sektor rahbarlari, shahar hokimining 1-o'rinbosari, viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i, mahalla mas'ullari, faol nuroniylar, otalar va o'qituvchilar ishtirok etishdi.

Mazkur yig'ilishda otaning farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda mas'uliyat hissini kuchaytirish, farzandining yozgi ta'til vaqtini mazmunli o'tkazishlari uchun

Image not found or type unknown

yaratilgan shart-sharoitlarni yaratib berish bo'yicha kerakli tavsiyalarni berdi hamda oila a'zolarining farzandlari xavfsizligini ta'minlash, ilm olishi va qo'shimcha imkoniyatlarni yaratish jihatida taklif va tavsiyalar berildi.












Image not found or type unknown









Image not found or type unknown

